

“IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA OBRAZLAR TALQINI

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Annotatsiya: *Ma'rifatli kitobxonni tarbiyalash, uning didini o'stirish va ma'naviyatini boyitish har bir adibning vazifasi. Zotan, ijodkor asarlarining saviyasi o'quvchilarning badiiy-estetik tarbiyasida ham o'ziga xos manba bo'lib xizmat qiladi. Muallifning qalb bisotidagi boyliklar o'quvchi ongiga ko'chishi barobarida uning uchun ezgulik va go'zallik sari yo'l ochadi. Ta'sir va taassurotlarga boy bu ijodiy hamkorlik kitobxonni nafosat safarga undaydi, uning safardosh bo'lishga imkon yaratadi. O'tkir Hoshimovning barkamol ijod yo'li o'quvchilarining kamolot sari intilishiga, o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni egallashlariga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Kitobxon, ayol, xalq, qanoat, matonat, sabr, Qora amma, Muzaffar, papiros, sartarosh, tinchlik.*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРЕДМЕТОВ В РОМАНЕ «МЕЖДУ ДВУМЯ ДВЕРЯМИ

Пардабоева Адипа Шухрат кизи

Студент по направлению Узбекский язык и литература Нукусского государственного педагогического института.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Аннотация: *Долг каждого поэта – воспитывать просвещенного читателя, воспитывать его вкус и обогащать его духовность. Уровень творческих работ служит уникальным источником художественно-эстетического воспитания студентов. Перенос богатства сердца автора на сознание читателя открывает ему дорогу на путь добра и красоты. Это творческое сотрудничество, богатое на штрихи и впечатления, позволяет читателю оказаться в путешествии. Путь гармоничного творчества Уткира Хошимова послужит стремлению студентов повзрослеть, получить необходимую информацию.*

Ключевые слова: *читатель, женщина, люди, довольство, мужество, терпение, черная тетя, музаффар, папирус, цирюльник, мир.*

INTERPRETATION OF OBJECTS IN THE NOVEL “BETWEEN TWO DOORS”

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

Student majoring in Uzbek language and literature at Nukus State Pedagogical Institute. pardaboyevaadiba@gmail.com

Abstract: *It is the duty of every poet to educate the enlightened reader, to cultivate his taste and enrich his spirituality. The level of creative works serves as a unique source of artistic and aesthetic education of students. The transfer of the riches of the author's heart to the reader's mind opens the way for him to the path of goodness and beauty. This creative collaboration, rich in touches and impressions, allows the reader to be on a journey. The path of harmonious creativity of Utkir Hoshimov will serve the students' desire to mature, acquire the information they need.*

Keywords: *Reader, Woman, People, Contentment, Courage, Patience, Black Aunt, Muzaffar, Papyrus, Barber, Peace.*

Adib zoti borki, o'z asarlarining o'qilishi, uqilishi va kitobxonlar tomonidan tushunib qabul qilinishini istaydi. “Seni tushunishsa, katta baxt”, degan hikmat aslida yozuvchilik qismatiga daxldor. Hatto hazrat Navoiyday daho san'atkor ham “El netib topg'ay menikim...”, deya andishalarga borgani va munojot paytida Yaratganga “Iloyo degonimni ulusqa marg'ub et...”, deya musallo etgani barchamizga ma'lum. Ijod va ijodkor qismatiga bog'liq bu so'zlar nafaqat mumtoz adiblarga, balki zamonaviy ruhda asarlar yozib, el e'zoziga musharraf bo'lgan adiblarga ham xos. Shunday ekan, zamonaviy adib ham o'z asarlarini zamondoshlari tomonidan qabul etilishini istashi tabiiy. “Hamisha bir orzu bilan yashayman, — deb yozadi O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov. — Shunaqa kitob yozsangki, uni o'qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uxlo olmay, to'lg'onib chiqsa. Oradan yillar o'tib asarni qaytadan qo'liga olganida tag'in hayajonlansa, yangi ma'nolar topsa”. Mazkur asar O'tkir Hoshimov asarlari ichida qamrovi, o'quvchi qalbiga yaqinligi bilan alohida ahamiyatga ega. Unda adib qariyb qirq yillik davrni o'z ichiga olgan, bir qancha chigal va murakkab taqdirlar misolida o'z xalqining urush davrida boshdan kechirgan hayoti, qismati haqida mahorat bilan qalam tebratgan. Zamon va davr qanday sharoitda kechishidan qat'iy nazar insoniy qadr-qimmat tushunchalarini saqlab qolgan, taqdirini el-yurti, xalqi, vatani taqdiri bilan bog'lagan, farzandidan

ayrilganida ham qalbiga quvonch baxsh etishi mumkin bo'lgan boshqa sababni o'zi uchun yarata olgan, hayotini sevgi-muhabbat tuyg'ulari bilan bezamoqchi bo'lgani holda urush hukmiga tobe bo'lib qolgan insonlar qismatini ifodalovchi ushbu asar mutolaasidan so'ng bugungi o'tayotgan tinch-omon hayotingiz, farzandlaringiz baxti uchun shukrona aytasiz. Asar aynan shu jihati bilan qalblarga yaqin.

Muzaffarning Qora ammasining uyiga ketishidan oldin aytgan fikrlariga e'tibor bering: "Dadam har gal gugurt chiqazganida, mo'ylovi yonib ketmasaydi" deb qo'rqaman deydi Muzaffar. O'quvchini tasavvur qilish qobiliyatini shakllanishida muhim rol o'ynaydigan o'xshatishni ishlatadi. Xo'sh, rostan ham o'ylab ko'ringchi, papiros tutatayotganda, mo'ylovi yonib ketishi mumkinmi? Kichik yoshdagi Muzaffar dadaining mo'ylovi yo'g'on ekanligi, Qora ammasining mushugini dumiga o'xshashini, dikkayib turadi, ammo sarg'ayib ketganligini keltirib o'tadi. Yoki bo'lmasam, dadasi uni "giroy" deb chaqirishi ham maqtash va erkalatish uchun qo'llangan o'xshatish hisoblanadi. Muzaffar negadir ammasini "koptok"ga o'xshatgan. Aytishicha, kichkina va dum-dumaloq, tag'in yozda ham qora nimcha kiyib yurganligi uchun yoki bo'yi past, to'la ayol bo'lganligi uchun koptokka o'xshatgan bo'lsa kerak. Muzaffar tilidan aytib berilgan qismlarni o'qir ekansiz, xuddiki u aytib berayotgan voqealar ichida yashab ko'rasiz.

"Tuya amaki" deb ataluvchi sartaroshning har gal boshni ishqalab, sovun surib, "boshingni eg" deb turtishi, har gal sochni ham ustartada olishi juda qiziqarli yo'sinda tasvirlab berilgan. Har gal bo'yin ekanida charchab ketishi, burnini tortaverishi holatlarini yozuvchi juda mahorat bilan qo'llagan. Chunki har birimiz yoshlikda bu kabi qiziq voqealarga ham guvoh ham sababchi ham bo'lganmiz. Bolalikda eng ko'p uchraydigan holatlardan shomgacha ko'chadan kelmasdan o'ynashimiz, keyin hamma ovqat vaqtida tarqab ketishi, ba'zida onalarimizning bizni izlab yurishlari hamda loydan qushlar uchun in, qasrlar va haykallar yasashimiz, ularni quritishimiz, barglardan pullar yasab o'ynaganlarimiz ham kichik Muzaffar kabi bolalik hislarimizni yana bir bor eslashlikka sabab bo'ladi.

Asar voqealarida ayollarning ham o'rni beqiyos ravishda tasvirlangan. Ular ichida, ayniqsa, Qora amma ajralib turadi. Qora amma—mehribon, soda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o'zbek onalarining siymosi tasvirlangan. U boshiga tushgan barcha ko'rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o'zida yashashga kuch topadi. Qora amma olti farzandini yerga qo'yib, bittagina Kimsanini yer-u ko'kka ishonmasdan katta qildi. Yurtda mudhish urush boshlangach, miq etmay, el-yurt ishiga kamarbasta bo'lsin deb yolg'iz farzandi —Kimsanini urushga kuzatadi. Biroq o'g'li urushdan qaytmaydi, lekin mushtipar ona bu xabarga ishonmaydi. Hattoki, yillar o'tsada unga a'za ochmaydi. Muzaffar ammasining un

elashiga qarab turib: "Ichingida nima bor amma" degan gaplariga bir nazar solaylik. "Dard bor bolam, akang bor". Har gal unni elar ekan u aytayotgan qo'shiq ohangi maromi buzilib, o'zgarib boraveradi, oxirida aytishga kuchi ham qolmasdan ko'zlaridan yosh suzib chiqadi va Kimsanning rasmiga bir qarab oladi. Muzaffar yupataman deganda, yig'lamayotganligini, Kimsan akasi kelishini keyin to'y qilishlarini aytadi. Bilasizmi, bu yerda haqiqiy o'zbek ayolining ayollik sabri va matonati, qanchalar kuchli irodasi bor ekanligi ko'rsatib berilgan. Ona baribir onada, siz necha yoshga kirmang, sizga gard yuqishini, joningizga ozor yetmasligini hohlaydi. U og'lini hech ham halok bo'lgan deb o'ylamaydi, bir kuni qaytadi degan umid bilan yashaydi. Hayotda bir kuni hammasi yaxshi tomonga o'zgaradi yoki yaxshi bo'lib ketadi deya qalbi yig'lasa-da, ko'nikib yashayotgan ayollar qancha? Albatta, ko'p.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Chindan ham yozuvchining qissalarini, romanlarini o'qiyotganda qahramonlarining hayoti ko'z o'ngimizda yaqqol namoyon bo'ladi, asarni o'qib bo'lgach ongimiz va shuurimizda ularning qiyofasi qayta jonlanadi: ular siz bilan dillashadi, his-tuyg'ularingizga ta'sir etib, hayot haqida, inson taqdiri haqida o'ylarga toldiradi. Har bir voqeani xuddiki siz boshdan kechirayotgandek bo'lasiz, yig'laydigan joyda qo'shilib yig'laysiz, kuladigan joyda esa qo'shilib kulaysiz. Ancha vaqt shu asarlar ta'sirida yurasiz, qahramonlar bilan xayolan bahslashasiz, ko'nglingizdan kechgan o'y-kechinmalar ta'sirida ayrim qahramonlar tarafiga o'tib olib, ularning muxoliflari bilan kurashasiz. Aslida badiiy asarning ta'sir kuchi, kitobxon qalbini zabt etish mo'jizasi ham shunda.

Quyosh har kuni uyg'ongan zahoti jilmayib boqadi-yu unsiz xitob qiladi: «Bir kiprik qoqgulik qisqagina umringizda tinch-totuv yashasalaring bo'lmaydimi? Goh non talashasizlar, goh shon! Goh makon talashasizlar, goh iymon? Axir hammangiz insonsiz-ku! Bir-birlaring bilan qirpichoq bo'laverishlaringni ko'rib charchab ketdim-ku! Yetar axir, yetar, bolajonlarim! O'z onangizni – Yer kurrasini adoyi tamom qilib tinchimoqchimisiz?! Onangiz shu umidda tug'ganmidi sizni?! Shu niyatda ko'tarib yuribdimi ko'ksida!» Asar ichida kelgan ushbu iqtibos ma'nolariga e'tibor bering. Oddiy quyosh timsolida hamisha insonlarni bir-birlariga mehrli, birdam bo'lishga chaqirayabdi. Insoniylik, mehr va muhabbat tuyg'ularini bir-birlaridan qizg'anmasliklarini uqtirayabdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hoshimov, O'. (2013). Ikki eshik orasi. Roman.
2. Hoshimov, O'. (2009). Sakkizinchi mo'jiza. Toshkent.
3. Boltaboyev, H. (2011). El sevgan adib. Toshkent.
4. Dusenboyev, O. "Ikki eshik orasi" romani haqida.
5. Sharafiddinov, O. "Ikki eshik orasi haqida"
6. <https://jadid.uz/otkir-hoshimovning-ikki-eshik-orasi-romanidan-iqtiboslar/>
7. [Xurshid Davron Kutubxonasi+5AzKurs+5UzPedia+5Xabar.uz - ахборот-таҳлилий портали+5Xurshid Davron Kutubxonasi+5UzPedia+5](#)